



MECHANISMS FOR IMPROVING THE ANTI-CORRUPTION SYSTEM

Navruza Tajiyeva

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: navruzatajiyeva@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: corruption, legal mechanism, civic oversight, digitalization, institutional reform, anti-corruption culture, international experience.

Received: 10.04.25

Accepted: 12.04.25

Published: 14.04.25

Abstract: This article analyzes the mechanisms for improving the anti-corruption system in Uzbekistan. The author explores the legal foundations of anti-corruption efforts, evaluates the current institutional structure, and examines the effectiveness of implemented policies. Based on the experience of foreign countries, particularly Georgia, Singapore, and South Korea, the study identifies key strategies for enhancing transparency, strengthening legal mechanisms, and fostering civic oversight. The article also emphasizes the importance of digitalization and the development of anti-corruption culture through education. The findings aim to contribute to the development of a comprehensive and sustainable anti-corruption strategy in Uzbekistan.

KORRULSIYAGA QARSHI KURASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Navro'za Tajiyeva

magistratura tinglevchisi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: navruzatajiyeva@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Korrupsiya, huquqiy mexanizm, jamoatchilik nazorati, raqamlashtirish, institutsional islohotlar, antikorruptsiya madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishning dolzarb mexanizmlari tahlil qilinadi. Korrupsiyaning huquqiy asoslari, amaldagi davlat siyosati va

institutsiyal tuzilmalarning faoliyatini o‘rganadi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida samarali yo‘nalishlar aniqlanadi. Raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati, huquqiy islohotlar va antikorrupsiya madaniyatini shakllantirish orqali tizimni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Навроза Таджиева

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: navruzatajiyeva@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовой механизм, контроль, институциональная антикоррупционная международный опыт.

коррупция, гражданский цифровизация, реформа, культура,

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы совершенствования системы борьбы с коррупцией в Узбекистане. Автор исследует правовые основы антикоррупционной деятельности, оценивает текущую институциональную структуру и анализирует эффективность реализуемых политик. Опираясь на опыт зарубежных стран, таких как Грузия, Сингапур и Южная Корея, в статье выявляются ключевые стратегии для повышения прозрачности, усиления правовых механизмов и развития гражданского контроля. Также подчеркивается важность цифровизации и формирования антикоррупционной культуры через образование. Результаты исследования направлены на разработку комплексной и устойчивой стратегии борьбы с коррупцией в Узбекистане.

Kirish. Bugungi kunda korrupsiya nafaqat alohida bir hudud yoki davlatning muammosi, balki butun dunyo hamjamiyatining dolzarb muammosiga aylangan. U davlatning iqtisodiy rivojlanishiga, siyosiy barqarorligiga, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ko‘plab davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilamoqda. O‘zbekiston ham bu borada tizimli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish mexanizmlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida korrupsiya har qanday davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Bu illat nafaqat iqtisodiy o‘sishni

sekinlashtiradi, balki davlat boshqaruvi samaradorligiga putur yetkazadi, jamiyatda ishonchszilik va befarqlik kayfiyatini kuchaytiradi. Korrupsiya oqibatida budget mablag‘larining noto‘g‘ri yo‘naltirilishi, qonun ustuvorligining buzilishi va teng imkoniyatlar printsipining yo‘qolishi kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muhim qadamlar tashladi. Xususan, 2017-yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, 2020-yilda esa Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi davlat siyosatida bu masalaga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, korrupsiyaning ildiz otgan shakllari, ayrim davlat idoralarining ochiqlik va shaffoflik darajasining pastligi, jamoatchilik nazoratining zaifligi mavjud tizimda muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish, zamonaviy institutsional va huquqiy mexanizmlarni joriy qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Mazkur maqolada O‘zbekiston va xorijiy tajriba asosida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, mavjud muammolar va istiqbollar tahlil qilinadi. Tadqiqotdan maqsad – korrupsiyaga qarshi kurashishda kompleks yondashuvni shakllantirish va samarali institutlar tizimini yaratishdir.

Korrupsiya — bu mansab vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yo‘lida suiiste’mol qilish shaklidir. U nafaqat poraxo‘rlik, balki tanish-bilishchilik, manfaatlar to‘qnashuvi, hujjatlarni soxtalashtirish kabi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi korrupsiya bilan bog‘liq harakatlar jinoyat deb e’tirof etilgan va ularga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi.

2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohada asosiy me’yoriy-huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Bu hujjatda korrupsiyaga qarshi kurash subyektlari, profilaktika choralari, institutsional mexanizmlar aniq belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Jinoyat Kodeksining bir qator moddalarida poraxo‘rlik, mansab vakolatini suiiste’mol qilish va noqonuniy boylik orttirish jinoyatlari belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, 2025 yilgacha, O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash tizimida bir nechta muhim o‘zgarishlar va takomillashtirishlar amalga oshirildi. Quyidagi asosiy sohalarda yirik islohotlar amalga oshirildi:

1. Korrupsiyaga qarshi milliy strategiya: O‘zbekiston hukumatining 2020-yilda tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi” doirasida korrupsiyaga qarshi kurashishning 2025-yilgacha bo‘lgan yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiya korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish uchun davlat organlari va jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etishga qaratilgan.

2. Davlat organlarida shaffoflikni oshirish: O'zbekiston davlat organlarining faoliyatida shaffoflikni oshirish uchun turli mexanizmlar joriy etildi. Masalan, davlat xarajatlari va tenderlar jarayonini onlayn monitoring qilish, davlat xizmatlarining raqamli tizimlarini rivojlantirish (masalan, "MyGov" platformasi), shuningdek, davlat xizmati uchun raqamli platformalarni joriy etish orqali korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

3. Korrupsiyaga qarshi huquqiy asoslarni mustahkamlash: Korrupsiyaga qarshi qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun bir qator yangi qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilindi. Misol uchun, korruption jinoyatlarni oldini olish uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish va "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonunlar qamrovini kengaytirish kabi islohotlar amalga oshirildi.

4. Mustaqil monitoring va hisobot tizimlari: Korrupsiyaga qarshi kurashishning mustahkamlanishi uchun jamoatchilik nazorati va mustaqil monitoring tizimlari joriy etildi. O'zbekistonda "Korrupsiyaga qarshi kurashish" tashkiloti va boshqa mustaqil kuzatuvchilar tashkilotlari davlat organlarining faoliyatini monitoring qilishga jalb qilindi.

5. Tadbirkorlar va jamiyatni jalb etish: Tadbirkorlar va fuqaro jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli mustahkamlandi. Ushbu jarayonda biznes sektorining shaffof faoliyatini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratildi.

6. O'zbekistonning xalqaro hamkorligi: Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik mustahkamlandi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirib, global standartlarga moslashtirilgan choralar ko'rildi.

Bu jarayonlar, albatta, mamlakatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, shu bilan birga ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam berdi.

Korrupsiya — bu mansab vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yo‘lida suiiste’mol qilish shaklidir. U nafaqat poraxo‘rlik, balki tanish-bilishchilik, manfaatlar to‘qnashushi, hujjatlarni soxtalashtirish kabi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi korrupsiya bilan bog‘liq harakatlar jinoyat deb e’tirof etilgan va ularga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi.

2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohada asosiy me’yoriy-huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Bu hujjatda korrupsiyaga qarshi kurash subyektlari, profilaktika choralari, institutsional mexanizmlar aniq belgilangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Jinoyat Kodeksining bir qator moddalarida poraxo‘rlik, mansab vakolatini suiiste’mol qilish va noqonuniy boylik orttirish jinoyatlari belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha markazlashgan tizim mavjud. Quyidagi muassasalar bevosita yoki bilvosita ushbu jarayonda ishtirok etadi:

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi – profilaktik ishlar, nazorat, tahlil va monitoring olib boruvchi maxsus organ.

Bosh prokuratura va DXX – jinoyat ishi qo‘zg‘atish va tergov qilish vakolatlariga ega.

Davlat xizmatlari agentligi va Adliya vazirligi – ochiqlik, huquqiy monitoring va davlat xizmatlari sifati bilan shug‘ullanadi.

Biroq, tizimda bir qator kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

- Faoliyatda takrorlanish va vazifalarning chalkashligi;
- Korrupsiya faktlarining ko‘p hollarda jamoatchilikdan yashirilishi;
- Profilaktika ishlari o‘rniga ko‘proq jazoga asoslangan yondashuvning ustunligi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy qilsak maqsadga muvofiq bo‘lardi nazarimizda.

1. Huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish ya’ni Korruptsiyaga qarshi kurash qonunchiligini xalqaro me’yorlarga yaqinlashtirish (masalan, BMTning Antikorrupsiya konvensiyasiga muvofiq); Manfaatlar to‘qnashuvi va moliyaviy oshkorralikni tartibga soluvchi normativlar ishlab chiqish.

2. Raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirish

Davlat xaridlari, soliq deklaratsiyalari, mulk va daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochiq platformalarda e’lon qilish. Elektron davlat xizmatlarini kengaytirish orqali “inson omili”ni kamaytirish.

3. Jamoatchilik nazorati va fuqarolik jamiyati roli

Nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV va blogerlarni monitoring va audit faoliyatiga jalgan qilish. Korrupsiya haqidagi xabarlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish.

4. Ta’lim va madaniyat orqali profilaktika.

Maktab va oliy ta’lim tizimida “antikorrupsiya madaniyati”ni shakllantirishga oid maxsus kurslar. Ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari.

Xorijiy tajriba: Gruziya, Singapur va Janubiy Koreya misolida.

Gruziya:

2004–2012-yillarda Gruziya hukumati korrupsiya ildizini kesish maqsadida butun tizimni qayta qurdi. Ichki ishlar vazirligi to‘liq isloh qilindi, barcha xodimlar yangidan tanlab olindi. Davlat xizmatlari raqamlashtirildi.

Singapur:

Korruptsiyaga qarshi kurashish byurosi (CPIB) mustaqil faoliyat yuritadi. Og‘ir jazolar, daromadlar deklaratsiyasi va ochiq ishga qabul siyosati samara berdi.

Janubiy Koreya:

Antikorrupsiya bo'yicha "Clean Korea" dasturi, davlat xodimlarining mol-mulk deklaratsiyasi va ichki nazorat organlari samaradorlikni oshirdi.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashda qat'iy siyosiy iroda, institutsional islohotlar va jamoatchilik ishtiroki muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar

Tahlillardan ko'rinish turibdiki, korrupsiyaga qarshi kurash murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu jarayonda huquqiy, institutsional, texnologik va ijtimoiy mexanizmlar uyg'unlashgan holda ishlashi kerak. O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, tizimda hali ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

Asosiy xulosalar:

- Amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash tizimi markazlashtirilgan bo'lsa-da, javobgarlik va hisobotlilik mexanizmlari kuchsiz;
- Huquqiy asoslar mavjud, ammo ularning amaliy ijrosi yetarli emas;
- Raqamlashtirish va jamoatchilik nazorati hali to'liq joriy etilmagan;
- Ta'lim tizimida antikorrupsiya madaniyatini shakllantirish yetarli darajada emas.

Takliflar:

1. Har bir davlat organida mustaqil ichki audit bo'limlarini tashkil etish;
2. Davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish;
3. Fuqarolik jamiyatini korrupsiyaga qarshi kurashga jalb etish;
4. Ta'lim tizimida "halollik darslari"ni joriy etish;
5. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar.
3. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023. www.transparency.org
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni.
5. World Bank. (2021). Anti-Corruption Initiatives: Best Practices and Innovations. Washington, D.C.
6. OECD (2022). Integrity for Good Governance in the Western Balkans and beyond. Paris: OECD Publishing.
7. UNODC (2019). United Nations Convention against Corruption: Implementation Review.
8. Gruziya Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurash islohotlari: 2004–2012 yillar tajribasi.

9. Lee, H., & Kim, S. (2020). “Anti-Corruption Policies in South Korea: Institutional Reform and E-Governance”. *Asian Journal of Political Science*, 28(2), 145–160.
10. Huther, J., & Shah, A. (2000). Anti-Corruption Policies and Programs: A Framework for Evaluation. *World Bank Policy Research Working Paper*.
11. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining yillik hisobotlari (2022–2023). www.anticorruption.uz
12. Nazarov A. (2022). “Davlat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlari”. *Ijtimoiy fanlar jurnali*, 4(3), 34–42.
13. Karimova M. (2023). “Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyatni institutlarining o‘rni”. *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 2(1), 18–27.